

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

MATMUROTOV ALIBEK RAVILOVICH

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ADVOKAT MAQOMIGA EGA
BO‘LISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

12.00.07 – Sud hokimiyati. Prokuror nazorati. Huquqni muhofaza qilish
faoliyatini tashkil etish. Advokatura

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Р

О‘zbekiston Respublikasida advokat maqomiga ega bo‘lish tartibini takomillashtirish masalalari..... 3

Matmurotov Alibek Ravilovich

Issues of improving the procedure for acquiring the status of an advocate in the Republic of Uzbekistan..... 25

Матмуротов Алибек Равилович

Вопросы совершенствования порядка приобретения статуса адвоката в Республике Узбекистан..... 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works
Список опубликованных работ..... 52

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

MATMUROTOV ALIBEK RAVILOVICH

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ADVOKAT MAQOMIGA EGA
BO‘LISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

12.00.07 – Sud hokimiyati. Prokuror nazorati. Huquqni muhofaza qilish faoliyatini
tashkil etish. Advokatura

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Yu593 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va «ZiyoNET» Axborot-ta’lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tulaganova Gulchexra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Suyunova Dilbar Joldasbayevna
yuridik fanlar doktori, professor

Astanov Istam Rustamovich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi
Yuristlar malakasini oshirish markazi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2023-yil 21-fevral soat 15:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1091-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 6-fevralda tarqatildi.

(2023-yil 6-fevraldagi 1-raqamli reyestr bayonnomasi).

U.A.Tuxtasheva

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

V.X.Davlyatov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.M.Raxmonova

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda malakali yuridik yordam ko'rsatish huquqini ta'minlashda advokat maqomiga ega bo'lish tartibiga oid masalalar muhim ahamiyatga ega. Advokat maqomiga ega bo'lish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha sakkizinchi Kongressida qabul qilingan «Yuristlar roliga doir asosiy tamoyillar»¹ (Basic Principles on the Role of Lawyers) xalqaro hujjatida fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini samarali himoya qilishda Hukumat, advokatlarning kasbiy birlashmalari va ta'lim muassasalari advokatlarning tegishli ta'lim va tayyorgarlikka ega bo'lishini ta'minlashi kerakligi qayd etilgan. 2023-yil holatiga xorijiy davlatlarda, xususan AQSHda 248, Italiyada 260, Germaniyada 516, Hindistonda 951, Fransiyada 1221, Latviyada 1500 nafar fuqaroga bir nafar advokat yuridik yordam ko'rsatishi to'g'ri kelmoqda². Ushbu raqamlar bugungi kunda yuridik yordam olishga bo'lgan ehtiyojning tobora ortib borayotganligini ko'rsatadi.

Jahonda advokat maqomiga ega bo'lishga talabgorning bilimi, malakasiga qat'iy talablar qo'yish, yuridik mutaxassislik bo'yicha ish stajiga ega bo'lish, stajirovka o'tashning samarali mexanizmini joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali malaka imtihonini topshirish jarayonini takomillashtirish, advokat qasamyodini qabul qilish, advokatlar to'g'risida ma'lumotlarning yagona reyestrini shakllantirish masalalariga muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadigan tadqiqot yo'nalishi sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda advokaturaga yosh malakali kadrlarni jalb etish, advokatlik faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali ortiqcha byurokratiya va qog'ozbozlikka chek qo'yish, shuningdek, bu borada xorijiy davlatlar qonunchiligining ilg'or qoidalarini joriy etish advokatura institutini yanada isloh qilish sohasida olib borilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari sifatida qayd etilmoqda. Shu bois «advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo'lgan talabini to'liq qondirish»³ hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning «...advokatura institutini kuchaytirish, ushbu sohalar faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha oldimizda ko'pgina vazifalar turibdi»⁴ degan fikridan kelib chiqib, advokat maqomiga ega bo'lishning qonunchilik bazasini va uning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq qilish dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi Qonuni (1996),

¹ <https://www.ohchr.org/en/professionalinterest/pages/roleoflawyers.aspx>

² <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/lawyers-per-capita-by-country>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF–60-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son

⁴ O'zbekistonda adolat va qonun ustuvorligi – asosiy mezoniga aylanadi // https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonda-adolat-va-qonun-ustuvorligi-asosiy-mezoniga-aylanadi_318064

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (2008), «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi (2017), «Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (2018), «Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta‘minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi (2019), «2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi (2022) farmonlari, «Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (2022) qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi (2022) qarori, O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining «O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida»gi (2009) buyrug‘i hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda J.X.Abduraxmonxo‘jayev, J.A.Ne‘matov, S.B.Qodiraliyev, M.X.Rustamboyev, U.A.Tuxtasheva, D.Y.Habibullayev, S.A.Yakubovlar advokatura instituti va uning tashkiliy-huquqiy asoslari hamda advokatning kasbiy rivojlanish tendensiyalarini, D.B.Bazarova, K.K.Matkarimov, G.Z.Tulaganovlar himoyachining jinoyat protsessidagi holatini, B.Salamov advokatlik faoliyati, uning kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasini, V.X.Davlyatov advokatura institutini takomillashtirishda advokatlik tuzilmalari va o‘zini o‘zi boshqarish organining huquqiy maqomini, D.D.Nurumov advokat tomonidan tadbirkorlik subyektlariga yuridik yordam ko‘rsatishning tashkiliy-huquqiy masalalarini tadqiq etgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a‘zo mamlakatlar olimlaridan V.V.Zaborovskiy advokatning huquqiy maqomini, V.F.Anisimov, I.M.Perevezra xorijiy davlat advokatlarining qabul qiluvchi davlat hududida advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish shartlarini, T.B.Vilchik Yevropa Ittifoqiga a‘zo davlatlar va Ukraina qonunchiligida advokat maqomini olish tartibi va shartlarini, P.Y.Korotkova, Y.E.Makushkina, R.G.Melnichenkolar malaka imtihoni topshirish va unga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish masalalarini, V.Y.Abramov, S.Abdraxmanova, I.I.Belozerova, G.S.Devyatkin, D.A.Dobryakov, V.V.Golubev, I.N.Jdanov, N.A.Mamedov, Y.I.Soloveva, S.S.Yurev, O.Shvarsler advokat maqomiga ega bo‘lishning ayrim jihatlarini tadqiq etishgan.

Advokat maqomiga ega bo'lish uchun qo'yilgan talablarning ayrimlari, jumladan, oliy yuridik ma'lumot, amaliyot o'tash, nazariy va amaliy bilimlarni aniqlash bo'yicha test topshirish, advokatlik uyushmasiga a'zo bo'lish, qabul qiluvchi mamlakatlarda xorijiy davlat advokatlarining ishtirokiga M.Derra (Germaniya), Roger J. Goebel (AQSH), Kenneth S. Kilimnik (AQSH), Stefan Koriotoh (Germaniya) o'zlarining ilmiy ishlarini bag'ishlagan⁵.

Mamlakatimizda bugungi kunga qadar advokat maqomiga ega bo'lish tartibi kompleks tarzda tadqiq etilmaganligi bois mazkur masalani tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi «Sud-huquq tizimini isloh qilish sharoitida advokatura institutini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari» doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi advokat maqomiga ega bo'lish tartibini takomillashtirish, advokatura nazariyasini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

advokat maqomiga ega bo'lish tushunchasi, mazmuni va uning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish asosida unga ilmiy ta'rif berish;

O'zbekiston Respublikasida advokatura institutining rivojlanish bosqichlarida advokat maqomiga ega bo'lishga qo'yilgan talablarni o'rganish, ularning umumiy tavsifi qiyosiy-huquqiy jihatlarini tahlil qilish;

talabgorning advokat maqomini olish uchun fuqarolik va ta'lim darajasiga qo'yilgan talablarning ahamiyatini ochib berish;

advokat maqomiga ega bo'lishning zaruriy talabi sifatida yuridik mutaxassislik bo'yicha ish stajining mazmun-mohiyatini o'rganish;

advokat maqomiga talabgor tomonidan stajirovka o'tashning mohiyati va tartibini tahlil qilish;

malaka imtihonini topshirish tartibini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

advokat maqomiga ega bo'lishni rasmiylashtirishning o'ziga xos jihatlarini o'rganish va tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti advokat maqomiga ega bo'lish tartibi bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini advokat maqomiga ega bo'lish tartibiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ularni qo'llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi hamda tadqiqot mavzusiga oid konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va g'oyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda mantiqiy, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, statistika ma'lumotlari tahlili, sotsiologik so'rovlar o'tkazish, sharhlash va kuzatuv kabi usullardan foydalanilgan.

⁵ Mazkur olimlar ishlari va boshqa manbalarning to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida ko'rsatilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan talabgorlarning advokat maqomini olish jarayonini optimallashtirish hamda advokaturaga yosh malakali kadrlarni kengroq jalb qilish maqsadida advokat maqomiga talabgorning advokatlik tuzilmasida stajirovka o'tashning eng kam muddatini olti oydan uch oyga qisqartirish lozimligi asoslangan;

sudya, tergovchi, surishtiruvchi yoki prokuror lavozimida, shuningdek, davlat organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi sifatida kamida uch yil ish stajiga ega bo'lgan shaxslarni stajirovka o'tashdan ozod qilib, ularga to'g'ridan to'g'ri malaka imtihonida ishtirok etish huquqini berish zarurligi asoslab berilgan;

talabgorlarning kasbga oid bilim va amaliy ko'nikmalarni hosil qilishi uchun tayyorgarlik ko'rishiga olti oy muddatning yetarli ekanligini inobatga olib, malaka imtihonini takroran topshirishga yo'l qo'yiladigan muddatni kamida bir yildan olti oyga qisqartirish zarurligi asoslangan;

advokatlik guvohnomasining shakli va uni berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi hamda ushbu qoida qonun darajasida belgilanishi zarurligi asoslantirilgan;

talabgorning malaka imtihonini topshirganligi haqidagi qaror va tegishli hujjatlar maxsus axborot tizimi orqali rasmiylashtirilishi hamda talabgorga advokatlik litsenziyasini tegishli adliya organiga murojaat qilmasdan istalgan vaqtda elektron tizim orqali olish imkoniyati yaratilishi zarurligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

advokat va advokat maqomiga ega bo'lish tushunchalari tahlil qilingan holda mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan hamda O'zbekiston Respublikasida advokat maqomiga ega bo'lishga qo'yilgan talablarning tubdan o'zgarishiga olib kelgan davrlar besh bosqichga bo'lib tadqiq etilgan;

ayrim xorijiy davlatlar tajribasi asosida advokat maqomiga ega bo'lishga qo'yilgan muayyan talablarni kuchaytirish, ba'zilarini soddalashtirish orqali advokat maqomini olish imkoniyatini kengaytirish zarurligi asoslangan;

xorijiy davlatlar (Ukraina, Litva, Moldova, Polsha) tajribasi asosida Stajirovka rahbarlari va advokat stajyorlari reyestrini joriy etish lozimligi asoslangan;

O'zbekiston Respublikasining «Advokatura va advokatlik faoliyati to'g'risida»gi Qonunini qabul qilish hamda unda «Advokat», «Benuqson obro'-e'tiborga ega bo'lish», «Advokat maqomiga ega bo'lish», «Advokat stajyori», «Advokat stajyorining stajirovka rahbari», «Malaka imtihoniga ruxsat berish», «Malaka imtihoni», «Advokat qasamyodi» kabi moddalar kiritilishi lozimligi asoslangan.

xorijiy davlatlarning advokat maqomiga ega bo'lishga oid qonunchiligi advokaturaga oid milliy qonunchilik bilan qiyosiy tahlil etilib, tizimga yosh malakali kadrlarni jalb qilish zarurligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijasida olingan nazariy xulosalar, qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar «Advokatura», «Advokatura va advokatlik faoliyati» fanlaridagi ilmiy doktrinal qarashlarga, ushbu sohadagi xalqaro hujjatlar, xorijiy mamlakatlar

qonunchiligi, milliy qonunchilik normalariga, shuningdek, ijtimoiy so‘rov natijalari (32 nafar advokatlar⁶ hamda 100 nafar Toshkent davlat yuridik universiteti professor-o‘qituvchilari va 144 nafar talabalari⁷ning (shundan 34 nafari xorijiy davlatdan o‘qish uchun kelgan) fikrini o‘rganish uchun so‘rovnoma-anketa tarqatildi), tadqiqot ishidagi axborot bazasining ishonchliligi rasmiy nashrlarda e‘lon qilingan statistika ma‘lumotlaridan, monografik tadqiqotlarda tekshirilgan va nashr etilgan adabiyotlardan foydalanilganligi bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022-yil 28-fevraldagi 30-um-son buyrug‘iga asosan, 2022-yilning mart-aprel oylarida O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining Toshkent shahar hududiy boshqarmasida stajirovka⁸ o‘tashda o‘rganilgan amaliyot materiallari va statistika ma‘lumotlaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, mazkur tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan qoidalar «Advokatura», «Advokatura va advokatlik faoliyati» fanlari nazariyasining rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Ilmiy izlanishlar doirasida ishlab chiqilgan xulosalardan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda, oliy ta‘lim muassasalari, yuridik texnikumlarda «Advokatura» moduli bo‘yicha dars o‘tishda, o‘quv va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanilishi mumkin. Shu bilan birga, O‘zbekistonda advokat maqomiga ega bo‘lish bilan bog‘liq muammolarning hal etilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati advokat maqomiga ega bo‘lish tartibini takomillashtirishga qaratilgan bir qator qoida va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganida ifodalanadi. Tadqiqot natijalaridan advokaturaga oid qonunchilikni takomillashtirishda, shuningdek, yuridik mutaxassislik bo‘yicha ish staji mazmuni, stajirovka o‘tash, malaka imtihonini topshirish, advokat qasamyodini qabul qilish hamda advokat maqomini olish tartibini takomillashtirish bo‘yicha hujjatlarini tayyorlash amaliyotida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekiston Respublikasida advokat maqomiga ega bo‘lish tartibini takomillashtirish masalalari mavzusidagi tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

advokat maqomiga ega bo‘lishga talabgorning advokatlik tuzilmasida stajirovka o‘tash muddatini olti oydan uch oyga qisqartirish haqidagi taklifdan «Advokatura to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 3¹-moddasi ikkinchi qismiga o‘zgartirish kiritishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasining 2022-yil 20-yanvardagi 06/1-05-265-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi talabgorlarning qisqa muddatda advokat maqomini olish jarayonini soddalashtirishga hamda advokatura instituti tizimiga yosh malakali kadrlarni jalb qilishga xizmat qilgan;

davlat organlari, xo‘jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari,

⁶ Advokatlar palatasi Toshkent shahar hududiy boshqarmasining 2022-yil 13-maydagi 2-12-875/1192-son xati.

⁷ Toshkent davlat yuridik universitetining Devonxonasida 2022-yil 25-apreldagi 09-505-son bilan ro‘yxatga olingan murojaat.

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining 2022-yil 17-martdagi 07-08-425/320-son xati.

muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimi sifatida, sudya, tergovchi, surishtiruvchi yoki prokuror lavozimida kamida uch yil ish stajiga ega bo'lgan shaxs advokatlik tuzilmasida stajirovkadan o'tmasdan malaka imtihonida ishtirok etishga haqli ekanligi to'g'risidagi taklifdan «Advokatura to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3¹-moddasi uchinchi qismini to'ldirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2022-yil 20-yanvardagi 06/1-05-265-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning qabul qilinishi kasbiy bilim hamda amaliy ko'nikmalarga ega shaxslarni takroran advokatlik tuzilmasida stajirovka o'tashdan ozod qilishga xizmat qilgan;

malaka imtihonini topshira olmagan talabgor uni takroran topshirishga yo'l qo'yiladigan muddatning kamida bir yildan olti oyga qisqartirish haqidagi taklifdan «Advokatura to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3¹-moddasi to'rtinchi qismiga o'zgartish kiritishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2022-yil 20-yanvardagi 06/1-05-265-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi talabgorlarga advokat maqomini olishda qo'shimcha imkoniyat yaratilishiga xizmat qilgan;

advokatlik guvohnomasining shakli va uni berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi zarurligi to'g'risidagi taklifdan «Advokatura to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3¹-moddasiga qo'shimcha kiritishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2022-yil 20-yanvardagi 06/1-05-265-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi advokat maqomiga talabgorning advokatlik guvohnomasini olishga oid aniq qoidalar belgilanishiga xizmat qilgan;

talabgorning malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirganligi haqidagi qaror va tegishli hujjatlar «Litsenziya» axborot tizimi orqali rasmiylashtirilishi va advokatlarning elektron reyestriga kiritilishi hamda talabgorga advokatlik litsenziyasini tegishli adliya organiga murojaat qilmasdan istalgan vaqtda ushbu axborot tizimi orqali olish imkoniyati yaratilishi haqidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi «Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-263-son qarorining 2-bandi «a» kichik bandi uchinchi va to'rtinchi xatboshilarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 23-noyabrdagi 8/10-0659-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning tatbiq etilganligi advokat maqomiga talabgorlarning ortiqcha sansalorlikdan, byurokratiya hamda qog'ozbozlikdan saqlanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobativiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta monografiya, ilmiy jurnallarda 6 ta (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, sakkizta paragrafni o‘z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 148 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqot ishining **kirish** (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, uning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinganligi, aprotatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning «**Advokat maqomiga ega bo‘lishga doir talablarning umumnazariy tavsifi**» deb nomlangan birinchi bobida advokat maqomiga ega bo‘lish tushunchasi, mazmuni va uning o‘ziga xos xususiyatlari, mamlakatimizda advokatura institutining rivojlanish bosqichlarida advokat maqomiga ega bo‘lishga qo‘yilgan talablarning umumiy tavsifi nazariy-amaliy jihatdan o‘rganilgan.

Dissertant malakali yuridik yordam ko‘rsatishning advokat maqomiga talabgorlarga qo‘yilgan talablar bilan bevosita bog‘liqligini ta‘kidlab, so‘nggi yillarda advokat maqomiga ega bo‘lish uchun qo‘yilgan amaldagi talablarni kuchaytirish o‘rniga aksincha yengillashtirish tendensiyasi kuzatilayotganligiga alohida e‘tibor qaratgan. Tadqiqotchining fikricha, O‘zbekistonda advokatlar sonini oshirish advokat maqomini olish uchun qo‘yilgan talablarni soddalashtirish evaziga amalga oshirilmasligi lozim, chunki bu yuridik yordam ko‘rsatish sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot ishida U.A.Tuxtasheva, G.Z.Tulaganova, B.Salamov, D.X.Davlyatov, A.D.Boykov, M.B.Smolenskiy, V.R.Dyukina, V.Zaborovskiy, A.Jalinskiylarning «advokat», «advokat maqomiga ega bo‘lish» tushunchalariga oid nazariy qarashlari o‘rganilgan va ular bilan ilmiy munozaraga kirishilgan. Ushbu masalaga oid xorijiy davlatlarning qonunchiligi tahlil qilingan holda «advokat maqomiga ega bo‘lish» tushunchasiga ilk marotaba mualliflik ta‘rifi berilgan. Shuningdek, «advokat» va «yurist» tushunchalarining o‘zaro nisbati hamda farqli jihatlari qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan va mohiyati ochib berilgan.

Tadqiqotchi B.Salamov, V.Davlyatov, K.Matkarimovlarning advokatura institutining rivojlanish bosqichlaridagi ahamiyatga molik o‘zgarishlarga oid qarashlarini qiyosiy-huquqiy tahlil etib, advokat maqomiga ega bo‘lishga qo‘yilgan talablarning tubdan o‘zgarishiga olib kelgan davrlarini shartli ravishda quyidagi besh bosqichga bo‘lishni taklif etgan:

birinchi bosqich 1990-yildan 1996-yilgacha bo‘lgan davrni;

ikkinchi bosqich 1996 – 2007-yillarni;

uchinchi bosqich 2008 – 2017-yillarni;

to‘rtinchi bosqich 2018 – 2021-yillarni;

beshinchii bosqich 2022-yildan hozirgi kunga qadar bo'lgan davrni.

Mazkur bobda xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish asosida advokat, advokat maqomiga ega bo'lish, malaka imtihoniga ruxsat berish, malaka imtihoni, advokat qasamyodi, advokatlar reyestrini o'z ichiga qamrab olgan «Advokat maqomi» nomli alohida bob qabul qilinishi rejalashtirilayotgan O'zbekiston Respublikasining «Advokatura va advokatlik faoliyati to'g'risida»gi Qonunida aks etishi kerak, degan xulosaga kelingan.

Tadqiqotda advokat maqomiga ega bo'lish uchun qo'yilgan talablar xorijiy mamlakatlar (AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Finlandiya, Ispaniya, Italiya, Polsha, Litva, Gruziya, Rossiya, Hindiston, Moldova, Ukraina, Qozog'iston, Ozarbayjon, Belarus, Armaniston)ning tajribasi asosida o'rganib chiqilgan va atroflicha tahlil qilingan.

Tadqiqotchi advokat maqomini olishda yuridik mutaxassislik bo'yicha ilmiy darajaga ega bo'lish, fuqarolik talabini zaruriy talab qilmaslik, malaka imtihonini ikki bosqichli qilish, stajirovka o'tashdan ozod qilinadigan shaxslar ro'yxatini kengaytirish hamda ilmiy darajaga ega talabgorlarni malaka imtihonining nazariy qismidan ozod qilish kabi ijobiy tajribalarni milliy qonunchilikka kiritish zarur, degan xulosaga kelgan.

Dissertantning fikricha, 2022-yilning 1-yanvar holatiga mamlakatimizda advokatlar soni 4211 nafarni tashkil etayotganligini (8375 nafar aholiga 1 nafar advokat to'g'ri kelmoqda), advokatlar sonini oshirish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan malakali yuridik yordam olish huquqini kafolatlash maqsadida amaldagi talablarni (fuqarolik, yuridik mutaxassislik bo'yicha ish stajiga ega bo'lish, stajirovka o'tash) nafaqat yengillashtirish, balki ayrim talablarni (ta'lim darajasi, malaka imtihonini topshirish) kuchaytirish zarur, degan nuqtayi nazarni ilgari surgan.

Muallif tomonidan xorijiy davlatlarda advokat maqomiga ega bo'lish uchun qo'yilgan talablar qiyosiy-huquqiy tahlil qilinib, ularni umumiy va maxsus talablarga ajratish zarurligi asoslantirib berilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi Qonunida yuridik mutaxassislik bo'yicha ish staji, stajirovka o'tash, malaka imtihonini topshirish kabi talablar advokat maqomiga ega bo'lish uchun emas, balki advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani olish uchun qo'yilgan talab sifatida belgilangan. Dissertant ayrim xorijiy davlatlarda advokatlik litsenziya talab qilinmaydigan faoliyati turi hisoblanishini, ushbu talab advokat maqomiga ega bo'lish uchun qo'yilganligini inobatga olib, ushbu tartibni milliy qonunchiligimizga joriy etishni taklif qilgan.

Dissertatsiyada yuridik mutaxassislik bo'yicha ish stajiga ega bo'lish (Litva, Rossiya, Ukraina, Ozarbayjon, Tojikiston), stajirovka o'tash (Litva, Polsha, Rossiya, Gruziya, Moldova, Ukraina, Belarus), malaka imtihonini topshirish (Litva, Polsha, Rossiya, Gruziya, Ukraina, Moldova, Belarus, Tojikiston) talablarini advokat maqomiga ega bo'lish uchun qo'yilgan talab sifatida belgilash, shuningdek, qo'shimcha talab sifatida advokat qasamyodini qabul qilish (Litva, Gruziya, Moldova, Ukraina, Armaniston) va advokatlar uyushmasiga a'zo bo'lish (Belarus, Qirg'iziston, Armaniston) kabi talablarni advokat maqomiga ega bo'lish uchun

qo'yilgan talablar ro'yxatiga kiritish zarurligi asoslantirilgan.

Tadqiqot ishida advokat maqomiga ega bo'lish uchun qo'yilgan talablardan biri sifatida yuridik mutaxassislik bo'yicha ilmiy darajaga ega bo'lish tahlil etilib, unda talabgorga uch turdagi imtiyoz berilishi qayd etilgan. Xususan, yuridik mutaxassislik bo'yicha ilmiy darajaga ega ekanlik oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lishning muqobili sifatida qo'llanilishi (Italiya, Rossiya, Moldova, Armaniston), stajirovka o'tashdan ozod qilinib, malaka imtihonini topshirish huquqiga ega bo'lishi (Moldova, Polsha), advokat maqomiga ega bo'lish uchun qo'yilgan talablardan to'liq ozod qilib, unga advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqi berilishi (Germaniya, Litva, Polsha) alohida ko'rsatilgan.

Mazkur bobda dissertant advokat maqomini olishning eng kichik va advokat maqomida bo'lishning eng yuqori yosh senzini belgilash masalasini o'rganib, ba'zi xorijiy davlatlar (Finlandiya, Hindiston, Kipr)da advokat maqomini olishning eng kichik yoshi belgilanganligiga e'tibor qaratgan. Tadqiqotchining fikricha, advokatura instituti doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar tendensiyasi hamda mavjud advokatlarning 50 foizi 50 yoshdan oshgan shaxslar tashkil etishini, bugungi kunda xorijiy tillarni mukammal darajada biladigan yosh kadrlarga talabning yuqori ekanligi, ushbu sohada yuqori tajribaga ega advokatlarga ehtiyoj mavjudligi (ijtimoiy so'rovda ishtirok etgan respondentlarning 139 nafari (57,5%) eng kichik hamda 165 nafari (68,1%) advokat maqomida bo'lishning eng yuqori yosh senzi belgilamaslik kerakligini bildirganligi)ni inobatga olib, advokat maqomini olishning eng kichik va advokat maqomida bo'lishning eng yuqori yosh senzini belgilamaslik kerak, degan xulosaga kelgan.

Ilmiy ishda davlat tilini bilish advokat maqomiga ega bo'lish uchun qo'yilgan talablardan biri sifatida tahlil qilingan bo'lib, xorijiy davlatlar (Litva, Gruziya, Ukraina, Tojikiston)da mazkur talab advokat maqomini olishda talabgorlar uchun zaruriy shart sifatida belgilanganligiga, bu orqali ushbu mamlakatlar davlat tilining milliy va xalqaro miqyosidagi nufuzi, mavqeyini oshirishiga xizmat qilayotganligiga alohida urg'u berilgan.

Muallif odil sudlovning demokratik prinsiplaridan kelib chiqib, sud ishlari nafaqat o'zbek tilida, balki boshqa tillarda ham olib borilishini ta'kidlab, ushbu talabni amaldagi qonunchilikka kiritish talabgorlar sonining keskin kamayishiga olib kelishi mumkinligi, bu talabni advokat maqomiga ega bo'lish uchun qo'yilgan talablar ro'yxatiga kiritish maqsadga muvofiq emasligini asoslagan.

Tadqiqot ishida xorijiy mamlakatlar (Finlandiya, Litva, Belarus) tajribasi asosida «benuqson-obro' e'tiborga ega bo'lish» tushunchasining nazariy-huquqiy jihatlari tahlil qilinib, uni milliy qonunchilikka kiritish zarur, degan nuqtayi nazar ilgari surilgan. Bunda, tadqiqotchi talabgor benuqson-obro' e'tiborga ega shaxs hisoblanmasligiga sabab bo'ladigan asoslar, advokat maqomiga ega bo'lish yoki advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lmaslik holatlarini tahlil qilgan.

Dissertant milliy va xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish natijasida advokat maqomiga ega bo'lish yoki advokatlik faoliyatini amalga oshirishga oid cheklovlarni ma'lum bir muddat davomida amal qiladigan (Rossiya, Gruziya, Ukraina, Armaniston, Qirg'iziston) va umrbod amal qiladigan (Litva, Moldova,

Belarus, Tojikiston) shakldagi ikki guruhga ajratish lozimligini asoslantirgan. Bunda cheklovlarining amal qilish muddati guruhlariga ajratishning asosiy mezon sifatida e'tiborga olingan.

Tadqiqot ishida advokatura institutini moliyalashtirishning yangi manbasi sifatida malaka imtihonini topshirish uchun to'lov to'lash masalasi xorijiy davlatlar (AQSH, Buyuk Britaniya, Polsha, Litva) tajribasi asosida o'rganilgan hamda Advokatlar palatasi Konferensiyasi malaka imtihonini topshirish uchun to'lov miqdori va uni to'lash tartibini belgilashi kerakligi asoslantirib berilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Advokat maqomiga ega bo'lish uchun qo'yilgan talablarni takomillashtirish masalalari**» deb nomlangan bo'lib, unda talabgorning advokat maqomini olishda fuqarolik va ta'lim darajasiga qo'yilgan talablarning ahamiyati, yuridik mutaxassislik bo'yicha ish stajiga ega bo'lish zaruriyati, talabgor tomonidan stajirovka o'tashning mohiyati va tartibi tahlil qilingan.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, O'zbekistonda fuqarolik senzi advokat maqomini olishda majburiy talab hisoblanadi. Biroq, dissertant fuqarolik majburiy talab bo'lmasligi kerakligini, bu borada advokatura instituti rivojlangan davlatlar (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Shvetsiya, Rossiya, Yaponiya, Koreya, Ukraina, Ozarbayjon, Armaniston)da fuqarolik advokat bo'lish uchun qo'yilgan zaruriy shart (talab) sifatida nazarda tutilmaganligiga e'tibor qaratgan. Tadqiqot doirasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovda ishtirok etgan respondentlarning 137 nafari (49,6%) chet davlat fuqarosiga, 129 nafari (46,8%) fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ham ayrim shartlar (ushbu davlatning yurisprudensiyasi bo'yicha bakalavriat ta'lim yo'nalishini tamomlash, malaka imtihonini topshirish va h.k.) mavjud bo'lganida O'zbekiston Respublikasida advokat maqomini olish huquqini berish kerak, degan fikrni bildirgan.

Dissertatsiyada xorijiy davlat advokatlarining O'zbekiston hududida advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyatlari xususida so'z yuritilib, D.Nurumov, I.Pereverza, V.Anisimov, Kenneth S. Kilimnik bilan ilmiy munozaraga kirishilgan hamda tadqiqotchi tomonidan xorijiy davlat advokatlarining qabul qiluvchi davlat hududida yuridik yordam ko'rsatishga ruxsat etilishi mezoniga ko'ra quyidagi modellarga ajratilgan:

- 1) taqiqlovchi (O'zbekiston);
- 2) cheklovchi (AQSh, Rossiya, Turkiya, Xitoy, Ozarbayjon, Vetnam, Yaponiya, Moldova, Qirg'iziston, Tojikiston);
- 3) erkin (Singapur va Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar).

Tadqiqotchi respondentlarning 169 nafari (61,3%) ayrim cheklovlar bilan xorijiy davlat advokatlariga mamlakatimizda advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini berish kerakligini bildirgani, mamlakatimizda investitsiyaviy muhitni yanada yaxshilash, chet el investorlarining o'z advokatlari bilan kirib kelishini ta'minlash hamda bu advokatlar o'rtasida sog'lom raqobat darajasining oshishiga olib kelishini inobatga olib, ayrim cheklovlar (faqat ushbu xorijiy davlatning qonuni masalalari hamda davlat va harbiy sirlar bilan bog'liq bo'lmagan ishlar bo'yicha, belgilangan tartibda ushbu mamlakatlarda advokatlik faoliyati bo'yicha kamida uch yil davomida shug'ullangan bo'lish) bilan xorijiy

davlatlarning advokatlariga O‘zbekiston hududida advokatlik faoliyatini amalga oshirish huquqini berish lozim, degan xulosaga kelgan.

Tadqiqot ishida advokat maqomini olishda talabgorning ta’lim darajasiga oid talab tahlil etilib, bugungi kunda noyuridik tayanch oliy ma’lumotli shaxslar yurisprudensiya mutaxassisligi bo‘yicha magistratura bosqichida ta’lim olayotganligi, ularning soni ortib borayotganligi ta’kidlangan. Toshkent davlat yuridik universitetida ushbu ko‘rsatkich 2019/2020 o‘quv yilida 31 nafarni, 2020/2021 o‘quv yilida 137 nafarni, 2021/2022 o‘quv yilida 69 nafarni tashkil etganligini, mazkur shaxslar O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuniga ko‘ra, oliy yuridik ma’lumotga ega hisoblanib, ularda advokat, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya maqomini olish huquqi mavjudligini ko‘rsatgan.

Dissertant o‘z fikrini davom ettirib, quyidagi savolni qo‘yadi, noyuridik tayanch oliy ma’lumotga ega bo‘lgan va yurisprudensiya mutaxassisligi bo‘yicha magistratura bosqichini tamomlagan shaxslar advokat maqomini olgan taqdirda ular tomonidan yuridik yordam ko‘rsatishning sifati qanday bo‘ladi? Bunga javoban tadqiqotchi magistratura bosqichi atigi bir yil davom etishini, ushbu vaqt davomida yurisprudensiyaga oid asosiy qoidalarni egallash imkonsiz ekanligini qayd etib, mazkur holatda malakali yuridik yordam ko‘rsatish sifati shubha ostida qoladi, degan xulosaga kelgan. Ijtimoiy so‘rovda ishtirok etgan 242 nafar respondentlarning 138 nafari (57%) tayanch oliy ta’lim yo‘nalishi noyuridik bo‘lgan shaxslarga advokat maqomini olish huquqini bermaslik kerak, degan fikrni bildirishgani ham muallif fikrining to‘g‘riligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotchi talabgor advokat maqomiga ega bo‘lishi uchun milliy oliy ta’lim muassasalari tayanch oliy yuridik ma’lumot to‘g‘risidagi diplomiga yoki O‘zbekistondagi xorijiy davlatlar oliy ta’lim muassasasi (filiali)ning tayanch oliy yuridik ma’lumoti to‘g‘risidagi diplomiga yoxud xorijiy davlatlarda tayanch oliy yuridik ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjat bilan birga uni O‘zbekistonda tan olish haqidagi guvohnomaga ega bo‘lish lozimligini asoslagan.

Dissertatsiya ishida yuridik mutaxassislik bo‘yicha ish stajiga ega bo‘lish talabining zarurligi, mazmun-mohiyati to‘g‘risida olimlar va amaliyotchi mutaxassislar (S.Yakubov, J.Ne‘matov, D.Habibullayev, V.Davlyatov, D.Nurumov, S.Qodiraliyev, V.Abramov)ning qarashlari hamda xorijiy davlatlar (Litva, Rossiya, Tojikiston, Ozarbayjon) qonunchiligi o‘rganilgan va tahlil qilingan.

Tadqiqotchi yuridik mutaxassislik bo‘yicha ish staji mavjud bo‘lishi zarurligi haqidagi talabni bekor qilmaslikni, balki uning muqobili sifatida stajirovka o‘tash talabini qonunchilikka kiritish maqsadga muvofiqligini asoslagan. O‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovda ishtirok etgan respondentlarning 146 nafari (60,3%) muallifning fikrini qo‘llab-quvvatlagan.

Dissertant o‘z fikrini davom ettirib, yuridik mutaxassislik bo‘yicha ish stajining boshlanish vaqti va yuridik mutaxassislik bo‘yicha ish staji hisoblanadigan ishlar (faoliyat turlari) amaldagi qonunchilikda aniq belgilanmaganligini ta’kidlab, bu hol mamlakatimizda ushbu masala bo‘yicha turlicha amaliyot shakllanishiga sabab bo‘layotganligini ko‘rsatgan.

Shu bois, xorijiy mamlakatlarning tajribasi asosida yuridik mutaxassislik bo'yicha ish staji hisoblanadigan ishlar (faoliyat turlari) ro'yxatini va uning boshlanish vaqtini Hukumat qarori asosida aniq belgilash taklif etilgan. Bunda, yuridik staj oliy yuridik ma'lumot yoki xorijiy davlatlarda oliy yuridik ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjat bilan birga uni O'zbekistonda tan olish haqidagi guvohnoma olingan hamda yuridik staj hisoblanadigan ishga kirgan vaqtdan boshlab hisoblanishi asoslab berilgan.

Mazkur bobda advokat stajyori va stajirovka rahbariga qo'yilgan talablar, stajirovka o'tash muddatlari, stajirovkadan ozod qilish hamda stajirovka o'tash bilan bog'liq masalalar tahlil qilinib, stajirovka o'tayotgan talabgorlarning aksariyati advokatlik kasbiga oid bilim va ko'nikmalarni egallash uchun emas, balki ushbu talab faqat qonunchilikda belgilanganligi uchun bajarayotganligi qayd etilgan. Masalan, 2021-yilda 351 nafar malaka imtihonini topshirgan talabgorning 147 nafari (41,8%) 3 oy davomida stajirovka o'tash orqali minimal talabni bajargan. Dissertant stajirovka o'tashni zaruriy talab sifatida belgilanmasligi kerakligi to'g'risida xulosaga kelib, stajirovka o'tash tartibini tubdan qayta ko'rib chiqish zaruriyati mavjud ekanligini ko'rsatgan.

Dissertantning fikricha, advokat stajyori sifatida ishga qabul qilishda taqdim etiladigan hujjatlarning ayrimlarini amaldagi qonunchilikka muvofiqlashtirish, ba'zilariga o'zgartish kiritish zarur. Jumladan, «O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportining nusxasi» so'zlarini «shaxsni tasdiqlovchi hujjat nusxasi» degan so'zlar bilan, «mehnat daftarchasi, birinchi marta ishga kirayotgan talabgorlar bundan mustasno» so'zlarini «mehnat daftarchasi yoki xodimning elektron mehnat daftarchasi, birinchi marta ishga kirayotgan talabgorlar bundan mustasno» so'zlari bilan almashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqqan.

Tadqiqotchi talabgorning advokat maqomini olishida stajirovka rahbarining o'rni muhim ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqib, stajirovka rahbari bo'lish uchun ham muayyan talablar qo'yilishi zarur, degan xulosaga kelgan. Shuningdek, talabgorlar uchun stajirovka rahbarini tanlashda kengroq imkoniyat berish maqsadida «Stajirovka rahbarlari va advokat stajyorlari reyestri»ni (Polsha, Xorvatiya, Litva, Rossiyadagi kabi) yaratish hamda ushbu reyestrga kirish uchun stajirovka rahbari benuqson obro'-e'tiborga ega bo'lishi, amalda intizomiy jazo chorasi olmaganligi, advokat sifatida kamida 3 yillik ish stajiga ega bo'lishi va stajyor bilan ishlash uchun lozim darajada sharoitga ega bo'lishi talablarini qonunda aniq belgilash lozimligi asoslab berilgan.

Muallifning fikricha, malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan advokat stajyori rahbarini rag'batlantirish, aksincha bo'lganida uni bir yilga qadar stajirovka rahbari bo'lish huquqidan mahrum etish mexanizmini joriy etish zarur. Shu bilan birga, stajirovkani muvaffaqiyatli o'tagan advokat stajyori stajirovka muddati tamomlangan vaqtdan boshlab ikki yil ichida advokat maqomini olish uchun malaka imtihonini topshirishi lozimligi, ushbu muddat o'tkazib yuborilganida, uning umumiy asoslarda yana stajirovkadan takroran o'tishi zarurligi haqidagi normani qonunchilikka kiritish taklifi berilgan.

Stajirovka o'tashni samarali tashkil etish maqsadida dissertant stajyor tomonidan ikkita referat tayyorlash va uni himoya qilish mexanizmidan voz kechish

lozimligini ta'kidlab, mazkur tartib o'rniga stajirovka rahbari tomonidan haftalik beriladigan moddiy huquq va protsessning dolzarb masalalari bo'yicha beshta mantiqiy savol va ikkita muammoli holatga (keys) protsessual hujjat namunalari asosida yozma javoblarni tayyorlash hamda advokatlik tuzilmasining rahbar organi oldida stajirovka yakunlanmasdan oldin ularni himoya qilish mexanizmini joriy etish bo'yicha taklifni ilgari surgan.

Ushbu bobda stajirovka o'tashdan ozod qilish masalasi tizimli yondashuv asosida tahlil qilinib, ayrim xorijiy davlatlar (Belarus, Ozarbayjon)da advokat sifatida uch yillik ish stajiga ega bo'lgan shaxsga, shuningdek, yurisprudensiya yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari, yuridik kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash muassasalarining kamida uch yil yuridik mutaxassislik bo'yicha ish stajiga ega bo'lgan pedagog kadrlarini stajirovkadan ozod qilish lozim, degan xulosa asoslantirilgan. Bunda, salbiy sabablarga ko'ra lavozimdan chetlashtirilgan shaxslar stajirovka o'tashdan ozod qilinmasligi kerakligi isbotlangan.

Dissertatsiyaning «**Advokat maqomiga ega bo'lish tartibini takomillashtirish istiqbollari**» deb nomlangan uchinchi bobida malaka imtihonini topshirish, uning ayrim bosqichlarini raqamlashtirish, advokatlik faoliyati uchun litsenziyani olish, advokat qasamyodini qabul qilish, advokatlik guvohnomasini olish hamda Advokatlar palatasiga majburiy a'zo bo'lishga oid masalalar tahlil qilingan.

Tadqiqotchi B.Salamov, V.Davlyatov, D.Habibullayev, Stefan Koriotoh, O.Shvars, A.Gevorgiz, D.Dobryakov, V.Zaborovskiy, Y.Soloveva, M.Kosenko, P.Korotkovalarning malaka imtihoniga oid qarashlariga o'z munosabatini bildirib, xorijiy mamlakatlar (Germaniya, Polsha, Litva, Rossiya, Gruziya, Ukraina, Belarus, Moldova, Ozarbayjon)ning qonunchiligi tahlili asosida bir qator taklif va mulohazalarni ilgari surgan. Jumladan, talabgor tomonidan malaka imtihonini topshirish uchun taqdim qilinadigan hujjatlar ro'yxati o'rganilib, shaxsni tasdiqlovchi hujjat nusxasi, tayanch oliy yuridik ma'lumot to'g'risidagi diplom yoki xorijiy davlatlarda oliy ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjat (uni O'zbekistonda tan olish haqidagi guvohnoma) yoxud yuridik mutaxassislik bo'yicha ilmiy daraja to'g'risidagi diplom, mehnat daftarchasi yoki elektron mehnat daftarchasi (nusxasi olinib, asli qaytariladi) yoxud ulardan birining ish joyida tasdiqlangan nusxasi yoki yuridik mutaxassislik bo'yicha ish stajini tasdiqlovchi boshqa hujjat nusxasi taqdim etish tartibini qonunchilikda belgilash lozim. Bundan tashqari, talabgorning muomalaga layoqatliligi to'g'risidagi ma'lumotni davlat xizmatlari markazlari orqali olish zarurligi asoslantirilgan.

Dissertant talabgor tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni o'rganish natijasiga ko'ra, unga qaytarib berish amaliyotini bekor qilib, buning o'rniga topshirilgan tegishli hujjatlarni o'rganish va uning natijasi bo'yicha malaka imtihoniga ruxsat berish yoki rad etish mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan.

Taqdim qilingan hujjat (ma'lumot)larning to'liqligi va haqiqiylikini tekshirish masalasida esa Oliy malaka komissiyasi va hududiy boshqarmalar huzuridagi malaka komissiyalariga ayrim vakolatlarni berish, malaka imtihoni majlislarini zaruriyatga qarab, ammo ikki oyda kamida bir marotaba o'tkazilishini qonunda belgilash, malaka imtihonida tushadigan savollarni xorijiy tajriba (Qozog'iston)

asosida mustaqil ekspertlarni jalb qilgan holda tuzish zarurligi haqidagi takliflar ilgari surilgan.

Ilmiy ishda malakali yuridik yordam ko'rsatish talabgorlarning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalari bilan bevosita bog'liqligiga e'tibor qaratilib, malaka imtihonini ikki bosqichli qilish zarurligi haqidagi B.Salamov va V.Davlyatovlarning fikrlariga qo'shilgan holda, xorijiy davlatlar (Polsha, Rossiya, Gruziya, Belarus, Armaniston, Qozog'iston)ning tajribasi asosida test bosqichini qonunchilikka kiritish kerakligi ta'kidlangan. Ijtimoiy so'rovda ishtirok etgan respondentlarning 142 nafari (58,7%) dissertantning malaka imtihonini ikki bosqichli (test va og'zaki suhbat) shaklda o'tkazilishiga oid bo'lgan nuqtayi nazarini ma'qullagan.

Tadqiqotda Rossiya Federatsiyasi tajribasi, o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijasiga (242 nafar respondentning 70 nafari yoki ularning 28,9%i) asoslanib, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajalariga ega bo'lgan nomzodlarni malaka imtihonining test va nazariy savollar qismidan ozod qilish lozim, degan xulosaga kelingan.

Dissertant advokatlik qasamyodini qabul qilish masalasida fikr yuritib, bir turdagi litsenziyaga ega bo'lgan advokat ikkinchi ixtisoslik bo'yicha malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan taqdirda takroran qasamyod qabul qilmasligi, advokat qasamyodi matnini «advokatning kasb etika qoidalariga qat'iy rioya etish» so'zlari bilan to'ldirish zarurligi, reyestrda kiritilishi nazarda tutilgan ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi Qonuni talablarini buzmasligi lozimligi bo'yicha takliflarni ilgari surgan.

Dissertatsiyada talabgorning advokat maqomini olishiga oid ikki xil yondashuv mavjudligi ta'kidlanib, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar (Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, Tojikiston)da advokatlik guvohnomasini olgan vaqtdan boshlab, Yevropa davlatlari (Daniya, Litva, Polsha)da advokatlar reyestriga kiritilgandan so'ng advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish mumkinligi qayd etilgan. Muallif bu borada MDHga a'zo davlatlar tajribasini ma'qullab, amaldagi mavjud tartibni saqlab qolish maqsadga muvofiq, degan fikrni asoslagan.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasida advokat maqomiga ega bo'lish tartibini takomillashtirish masalalari mavzusidagi dissertatsiya bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida nazariy va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

I. Advokatura institutini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy xulosalar:

1. «Advokat», «advokat maqomiga ega bo'lish» tushunchalariga quyidagicha mualliflik ta'rifi berildi:

«Advokat – qonunda belgilangan tartibda advokat maqomi va advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini olgan hamda huquqiy masalalar bo'yicha mustaqil professional maslahat beruvchi jismoniy shaxs»;

«Advokat maqomiga ega bo'lish – talabgorning advokat maqomini olish uchun qonunda belgilangan talablarni to'liq bajarishi, advokatlik litsenziyasini olishi,

